RICHARD PRESKOTNING “RASMAN O’LIK” (“OFFICIALLY DEAD”) ASARIDAGI ANTROPONIMLARNI INGLIZ TILIDAN O’ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLAR TAHLILI

Jasmina Hakimjonovna Ernazarova
Navoiy Davlat Universiteti
Xorijiy til va adabiyoti talabasi
E-mail: ernazarovajasmina686@gmail.com,
Sherzod Shavkatovich Shavkatov
Navoiy Davlat Universiteti
Ingliz tili amaliy fanlar kafedrasi
E-mail: sherzodbek.shavkatov.uzb@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqola jahon adabiyoti durdonalaridan biri bo’lgan Richard Preskot qalamiga mansub “Rasman o’lik” (Officially dead) asaridagi toponim va antroponimlarni ingliz tilidan o’zbek tiliga tarjima qilishdagi muammolarni tahlil qiladi. Asar tahlili uchun olingan atoqli otlar toponim va antroponimlarda uchraydigan bir qator muammolar va o’zgarishlarni ko’rib chiqadi.*

Kalit so’zlar: *Richard Preskot, antroponim, toponim, atoqli otlar, ingliz tili, o’zbek tili*

PROBLEMS OF TRANSLATION OF ANTHROPONYMS AND TOPONYMS TRANSLATION ANALYSIS FROM ENGLISH INTO UZBEK IN RICHARD PRESCOTT “OFFICIALLY DEAD”

Abstract. *This article analyzes the problems of translating the analysis of Anthroponyms and Toponyms transformations from English into Uzbek in*

Officially dead by Richard Prescott, one of the masterpieces of the world literature. Nouns have taken for the analysis of the work consider a numerous of problems and changes in Toponyms and Anthroponyms.

Keywords: *Richard Prescott, anthroponym, toponym, proper nouns, English, Uzbek.*

Richard Preskot (1952-yil, 1-aprel, AQSH, Texas) “Macmillan Readers”, “Heinemann Guided Readers” nomli nashriyot uyushmalarida adabiyot haqida ko’plab maqolalari va asarlari chop etilgan. U asosan yozuvchilik bilan shug’ullangan. U “Officially dead”, “Ring of thieves” kabi asarlarini detektiv-triller, sarguzasht janrlarida yozib, sirli voqealar, xavf-xatar va to’satdan yuz beradigan burilishlarga boy bo’lgani sababli o’quvchini o’ziga rom etmay qo’ymaydi. Preskot asarlarini shunchaki hikoya emas, balki o’quv qo’llanmasi sifatida yaratadi: o’qish darajasini tekshirish va qo’llab-quvvatlash uchun qo’shimcha qismlarni o’z ichiga oladi. Shu bilan birga, uning asarlarini o’qish orqali hikoyalarda insoniy qadriyatlar, tushunchalar va hayotda hamma narsani yetti o’lchab, bir kesib ish ko’rish kerakligi uqtirilganiga guvoh bo’lamiz. Ushbu asar ham detektiv-triller janrda ingliz tilida yozilgan asardir. Asar 119 sahifadan iborat. Richard Preskot “Rasman o’lik” asaridan ilhom olib, detektiv-triller janrdan uzoqlashmagan holda “O’g’rilar uzugi”(Ring of thieves) nomli asarini omma e’tiboriga taqdim etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Mazkur maqola uchun tadqiqot davomida tarjima qiyosiy adabiyot,qarama-qarshi tavsifli tarjima va lingvistik atamalarni izohli tahlili, adabiyotning stilistik tahlili ko’rib, o’rganib chiqildi.

Etimologiya o’zi nima? Etimologiya – so’z va morfemalarning kelib chiqishi va tarixini o’rganuvchi soha. Qahramonning nomi – rus tiliga an’anaviy ravishda Jon deb tarjima qilingan John(Iohn, Jan, Jon), ingliz tilida “Xudo mehribon”,”Tangri marhamat qildi”,”Xudoning inoyati” kabi

ma’nolarni anglatadi. Bu ism asarda oddiy odam g’alati voqealar bilan yuzlashgani sababli hamda ism ma’nosidan kelib chiqqan holda, boshiga kelgan sinovlarga qaramay, unga “najot topadi” degan ramziy ma’no yuklash maqsadida foydalanilgan.”Linda”- Jonning ayoli, asarda maxfiy rol o’ynaydigan,ammo eng xavfli obrazlardan biri. U erining turli jinoiy rejalaridan xabardor bo’lgan, ba’zan jinoyat qilishga undaydigan, ayyor, ehtiyotkor va hisob-kitobli ayol bo’lgan. Qolaversa, u boshqalarning fikriga ta’sir qila oladigan darajada manipulyativ shaxs edi. “Kolin”- Jonning klubda tanishgan do’sti, bir tomchi suvdek o’xshash qiyofasi. U kompyuter kompaniyasida dasturiy ta’minot bo‘yicha mutaxassis, halol, ishchan, lekin ba’zan xavfli qarorlarga tez kirishib ketadigan inson sifatida tasvirlanadi. Kolin ishida yaxshi bo’lsa ham, moliyaviy bosimlar, qarzlar va muvaffaqiyatsizlikka uchrashlar unga kuchli zarbalar bera boshlaydi. “Julie”- Kolinning sadoqatli, fahm-farosatli rafiqasi va shu bilan birga uning hamkasbi hamdir. U turmush o’rtog’idagi o’zgarishni, nimadir noto’g’ri ketayotganini sezib qoladi. Bu obraz asarda haqiqiy sodiqlik, halollik va haqiqatni yoqlash timsolidir. Mark Ashvud – Kolinning mashinasi yo’lda izdan chiqib, halokatga uchraganini ko’rgan shaxs. U politsiyaga holat haqida xabar bergan oddiy fuqaro hisoblanadi. Mark syujeti Kolinning “rasman o’lik” deb e’lon qilinishiga turtki beruvchi epizoddir.

Ingliz tili - hind-yevropa oilasining german guruhiga kiruvchi til. Ingliz xalqining tili. O‘zbek tili - Oltoy tillari oilasining turkiy tillar turkumiga kiruvchi tildir. Ushbu til O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq davlat tili hisoblanadi.

Muhokama va natijalar

Zamonaviy tarjima talablariga asosan tarjimon asliyatning san’at asari sifatida shakl va mazmun birligini qayta yaratishi, milliy va individual xususiyatlarini saqlashi lozim. Tarjimon ona tilining rivojlanish darajasi, tarjimachilik an’analari, tajribalariga suyanadi, turli xil tafovutlarning

mavjudligini hisobga oladi. Tarjimonning ijodiy qobiliyati va bilimi uning imkoniyatlarini kengaytiradi. Tarjima jarayonida tarjimon hamma vaqt o‘z ona tilida fikrlaydi, ona tili unga tahlil quroli, sinov mezoni bo‘lib xizmat qiladi.

1-jadval

	INGLIZ TILI	**O’ZBEK TILI**
1	Colin Fenton	Kolin Fent_n
2	Julie Fenton	Juli_ Fent_n
3	John Bentley	Jo_n Bentli_
4	Linda Bentley	Linda Bentli_
5	Mark Ashwood	Mark Ashvud
6	Frankie	Fre_nki_
7	Maggie	Me_ggi_

Asarda keltirilgan ismlarni fonetik transformatsiya usuli bilan o‘zbek tiliga moslangan holda yozib chiqildi. Ismlarni bu shaklda o‘zgarib ketishiga yagona sabab - ingliz tili va o‘zbek tillarida ba’zi harflarning bir-biridan farq qilishida. 1. Colin Fenton dagi *“O”* tushib qolib, *Fentn* ga o’zgardi. 2. Julie Fenton dagi *“ie”* birgalikda *“i”* deb talaffuz qilinib, *Juli Fentn* ga o’zgardi. 3. John Bentley dagi *“hn”* birgalikda *“n”* ni, *“ley”* esa *“li”* ni ifodalab, ism *Jon Bentli* ga o’zgardi. 4. Linda Bentley dagi *“ley” “li”* ga o’zgarib, *Linda Bentli* hosil bo’ldi. 5. Mark Ashwood dagi *“oo”* talaffuzda *“u”* ni ifodalagani sababli *Mark Ashwud* ga o’zgardi. 6. Frankie dagi *“a” “e”* ga, *“ie”* esa *“i”* ga o’zgarib, *Frenki* ga aylandi. [6; 21] Asardagi ingliz tilidagi ismlarni transitiratsiya usuli bilan tarjima qilinganda va shunchaki o‘zbek tiliga asosan katta harflarda yozib qo‘yilganda bu yerda transitiratsiya usuli bilan fonetik transformatsiya amalga oshiriladi. Ismlarni fonetika nutq tovushlarining artikulatsion va akustik xususiyatlarini, bo'g'in, urg'u, ohang va fonetik hodisalarini, orfoepiya jihatidan esa adabiy tilga xos talaffuz va talaffuz me'yorlarini, etimologiya jihatidan so'z

va morfemalarning, ismlarning kelib chiqishi hamda tarixini o'rganib muqobil qoliplar taklif qilindi.

Xulosa

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki,maqoladagi ismlarni boshqa badiiy asarlardagi kabi tarjima qilish juda mashaqqat talab qilmaydi. Chunki badiiy asarlarda qahramonlar fe’l-atvori, xarakteri bilan bog‘liq shaklida va hattoki, xayoliy ham bo‘lishi mumkin. Bu asar ilmiy asar bo‘lganligi sababli undagi ismlar hayotdagi bor kishilar va insonlarga qo‘yiladigan nomlar bilan berilgan. Tarjimon faqat buni o’zbek tiliga mos va xos shaklda tarjima qilishi kerak. Lekin bu asar qahramonlarining ismlarini tarjima qilish jarayonida ehtiyot bo‘lish lozim. Kitobxon bu ismlarni o‘qir va qanday yozish uslubiga ko‘zi tushar ekan, keyinchalik ingliz tilida ham o‘zbek tiliga asoslanib yozib qo‘ymasligi kerak. Buning oldini olish maqsadida ismlarni haqiqiy ingliz tilida qanday yozilishi to‘g‘risida ham yozib o‘tish uchun kitobning bir sahifasini ajratish maqbul yo’l bo’ladi.

REFERENCES

1. Prescott, R. (1999). Officially Dead. Oxford: Macmillan Heinemann ELT.
2. Salomov, G'. (1984). Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: O'qituvchi.
3. Musaev, Q. (2005). Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: Fan.
4. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. New York: Prentice Hall.
5. Begmatov, E. (2016). O‘zbek ismlari ma’nosi. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
6. Baker, M. (2018). In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge.
7. Vinogradov, V. S. (2001). Vvedenie v perevodovedenie. Moskva: IOSO RAO.